



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta‘lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta‘lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

1. Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – Toshkent: San’at, 2006.
2. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1967.
3. Jabborov A.H. O’zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004.
4. G’ofurbekova X. “Bastakor Kamiljon Jabborov”. // Musiqa ijodiyoti masalalari I. – Toshkent: “Qatortol-Kamolot”, 1997. – 50 b.
5. Tashmatov T. O’ynasin. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 5-6 b.

AN’ANAVIY XONANDALIK TA’LIMI TARIXI

Rustam ABDULLAYEV,

O’zbekiston san’at va madaniyat instituti

Xalq ijodiyoti “Folklor va etnografiya” kafedrasida professor v.b.

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada an’anaviy ijrochiligimizdagi tarixiy manbalarning salmog’ida Buxoro musiqasi ilmi rivojiga hissa qo’shgan bir qator ahli ilm namoyondalari, shuningdek, Sharq G’arbda alohida e’tirofga sazovor ustoz san’atkorlarning ijroviy jarayonlari kesimida tahlil qilindi.*

***Kalit so’zlari:** Xusranaviyot, Choma(Chokomak), Tranak (Tarona), Patvoja (Paxlaviyot), rikob, rikobiy, goh, gohlar xaqida, xunob, gulipartav.*

An’anaviy ijrochiligimizning gultoji bo’lgan maqomlar va ular asosida yaratilgan xalq ashulalari, bastakorlar asarini. O’zbek milliy musiqasi san’ati oliy o’quv dargohlarida ta’lim olayotgan yosh avlodga o’rgatish, aniqlash, ularning tafakkuri, ongiga singdirish kundan – kunga dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, an’anaviy xonandalik fanini o’qitish zamirida mumtoz ashulalarning talaba ruhiga ta’siri, ularda paydo qiladigan fikriy o’zgarishlar va etnik – estetik rivojlanishida yaqqol namoyon bo’ladi¹

Agar biz Buxoro maqom xonandalik maktabi to’g’risida so’z olib borsak, aynan ushbu maqolamizda masalaning ma’lum jihatlari tadqiq qilishga xarakat qilamiz. Buxoro nafaqat osori-atiqalari, balki ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar bilan ham alohida ajralib turadi. Buxoro ahli musiqasi ilmi rivojiga munosib hissa qo’shib kelayotganligi bilan Sharq G’arbda alohida e’tirofga sazovor bo’lib kelayotgani hech kimga sir emas.

Buxoro musiqiy maktabi qadimiy tarixga ega, Somoniylar davrida yashab ijod etgan Tohir Abutayyibiy Somoniylar davri sozu ovoz musiqasining afzallik tomonlarini ochib bergan edi. Uning “Qo’shiqlarga oid kitob” asarida islomgacha bo’lgan qadimiy tarona va ohanglar haqida ma’lumot berilib, ayniqsa “Xusranaviyot” va “Forsiyot” ovoz silsilasiga ahamiyat beradi. Shuningdek, Somoniylarning “Choma” (“Chokomak”), “Tranak” (“Tarona”) “Patvoja” (“Pahlaviyot”) kabi musiqalariga ta’rif berar ekan, ularni IX-X asr musiqasi bilan bog’laydi. Fayzulla To’rayevning Buxoro Shashmaqomi tarixiga bag’ishlangan kitobi (“Musiqa” nashriyoti, Toshkent – 2011 yil) zamonlar to’foni va bo’ronlaridan bizning davrimizgacha eson – omon yetib kelgan milliy musiqamizning gultoji

sanalmish Buxoro Shashmaqomining tarixiy – tadrijiy taqdiri xaqida bitilgan kitobdir. Unda bugungi kunda umumjahon halqlarining nomoddiy merosi hamda ma’naviy mulkiga aylangan Shashmaqomning XX – asrga yetib yetib kelishida zamon va makonning ta’siri, shuningdek milliy davlatchiligimiz rahnamolarining sozparvarligi, ularning san’at va san’atkorlarga bo’lgan diqqat- e’tibori ishonarli dalillar asosida yorqin ifodalangandir. Mohir sozanda, ustoz – murabbiy va musiqashunos olim Fayzulla To’rayev o’z kitobida o’tgan davr tarixchilari va musiqashunoslarining yozib qoldirgan musiqiy risolalari, Shashmaqom bayozlari hamda zamondoshlar xotirasi, shuningdek boshqa bir qator ishonarli manbaalar asosida Buxoro Shashmaqomining asosli ravishda yoritib berishga erishgan. Shuningdek, u o’z kitobida Shashmaqomning takomillashuvi va uni asrab – avaylashda o’zini munosib hissasini qo’shgan bir qator maqomdon va maqomxon ustozlar xaqida, ya’ni bugungi kunda barcha san’at ahli va musiqa san’ati muxlislari uchun g’oyat muhimi hisoblangan tahliliy ma’lumotlar ham bergan. Umuman Fayzulla To’rayevning “Buxoro Shashmaqomi tarixidan” nomli kitobida Shashmaqom tarixiga oid yangi ma’lumotlarni, yangi tamoyillarni anglash mumkin va bu bizning Buxoro Shashmaqomi haqidagi bilim va tasavvurimizni yanada kengaytirishiga munosib xizmat qilishi shubhasizdir. Aytish joizki, Buxoro Shashmaqomining notaga olinishida jonbozlik ko’rsatgan bir qator maqomdonlar va musiqashunoslar haqida ham muallif batafsil to’xtalib o’tadi. Xususan Shashmaqomni notaga olinishida Buxorolik alloma Abdurauf Fitrat tomonidan shashmaqom bilimdonlari bo’lmish Ota Jalol Nosirov va Ota G’iyos Abdug’aniyevlar ijrolari asosida mashhur musiqashunos olim Viktor Uspenskiyning Shashmaqom nota yozuvini amalga oshirishlari uchun o’z uyida yaratib bergan sharoitlari hamda 1924 - yilda Moskva shahrida chop ettirgani haqida asosli qaktlar keltirgan. Shuningdek, Shashmaqomning ikkinchi marotaba notaga olingan nusxasi Tojikistoda yashab, ijod qilgan mashhur buxorolik maqom ustolari Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar tomonidan tojik tilida yaratilganligi va 1950-yilda Moskvada chop etilganligi haqida batafsil aniq ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga Ustoz Fayzulla To’rayev tomonidan o’z risolasida Shashmaqomning o’zbek tilida chop ettirilgan varianti akademik Yunus Rajabiy tomonidan 1955 – 1959-yillarda notaga olinib, chop ettirilganligi ham alohida ta’kidlab o’tiladi. Ayni paytda Shashmaqomning yana bir yangi varianti, mashhur sozanda va mohir qashqar rubobchi Ari Boboxonov tomonidan ham notaga olinib, Germaniya Federativ Respublikasida chop ettirilganligi haqida ham muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur nota yozuvida Shashmaqom taronalarining o’zgacha bir talqini namoyon qilingan.

Shashmaqomning turli variantlarda yozib olinganligi va ularning bir- biridan ma’lum darajada farq qilishi haqida ham muallif fikr bildirib, bu mavzuni hali yana qayta o’rganib chiqishga da’vat etadi. Bu esa o’z navbatida yosh olimlar va maqomdonlarning mazkur borada ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borishini taqozo etishi haqida fikr bildirilgan. Shuningdek mazkur ilmiy risolada maqomlarimizga oid bir qator tushunchalarning ilmiy tavsiri haqida ham fikr bildirilgan. Xususan, “rikob”, “rikobiy”, “miroxur” kabi atamalar haqida ham aniq fikr bildirilib, ularning

asl ma'nosi tahlil qilib berilgan. Shunday muhim faktlardan biri Shashmaqomga va o'zbek xalqining mumtoz musiqasiga oid bo'lgan "goh"lar haqida fikr bildirilganligidir. O'zbek xalqining qadimiy tarixini o'zida mujassam etgan "Avesto" kitobida ko'plab gohlar keltirilgan. Muallif "goh" qo'shimchasini musiqiy atamalar bilan birlashib ketishi, xususan dugoh, segoh, chorgoh, muhammasi panjgoh atamalaridagi "goh" qo'shimchasi aynan "Avesto"dagi "Goh"lar bilan bevosita aloqador bo'lishi mumkin ekanligini ta'kidlab, Shashmaqom va o'zbek mumtoz musiqasining yaratilishi eramizdan avvalgi IX-X asrlarga borib taqalishi ehtimoli borligi haqida ham fikr bildirgan. Bu esa o'z navbatida yanada ko'plab ilmiy tadqiqotlarda mazkur mavzuni tahlil qilish lozimligi haqida fikr beradi. Ushbu kitob haqida yana ko'plab ijobiy fikrlarni bildirish mumkin. Bu esa o'z navbatida risolaning ilmiy qimmatini yanada oshirgan holda uni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqish va bu haqda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish mumkinligini ko'rsatadi.

Mashhur musiqashunos Otanazar Matyoqubov o'zining "Maqomat" kitobida Levi Boboxonovning ijrochilik iste'dodi haqida quyidagilarni yozadi: "Levicha, odatda, bir yarim –ikki soat to'xtamasdan ashula aytgan. Ijro jarayonining ana shunday uzluksiz bo'lagi Buxoro sozandalari tilida payt, Xorazmda esa davr deyiladi. Har bir payt og'ir, ulug'vor kuy va qo'shiqlardan boshlanib, oxiriga qarab tobora yengillashib, sho'x o'ynoqi asarlarga o'tib boradi. Eshituvchiga zerikarli bo'lmasligi uchun sozanda nafaqat kuy va ashulalarning holatini, balki cholg'u asboblarni ham almashtirib turgan. U og'ir va salobatli ashulalarning jo'rligini satoda boshlab, ildamroq lirik kayfiyatdagilarini tanburda, sho'x o'ynoqlarini esa, doyra jo'rligida kuylashni xush ko'rgan. Aytishlaricha, davra qizib, ashulaga berilib ketgan paytida hofizning tanburni otadigan odati bo'lgan. Shunda ukasi Yov tanburni ilib olib, unga doyrani uzatar ekan" (O. Matyoqubov "Maqomat", "Musiqqa" nashriyoti, T.2004, 295-bet).

Levi Boboxonov Shashmaqomni kuylashda Buxoro maqomxonlik maktabiga xos bo'lgan uslublardan mohirona foydalangan. U xususan, ashulaning yuqori avjiga chiqqanida uning yanada jarangdorligini oshirish uchun "Gul partav" usulini qo'llagan. Bunday usulni qo'llash har qanday hofizga ham nasib etavermagan. ("Gul partav"- , ashulaning baland pardasiga chiqqanda yanada yuqoriga sakrab tik avjlar hosil qilishdan iborat). Ma'lumki, Shoshmaqomni aytish uchun ko'p holda Avji Turk, Zebo Pari, Muhayyar kabi avj va turli namudlardan foydalaniladi. Levicha hofiz yuqorida aytilgan avjlardan tashqari maqomxonlikda "Xunob" nomli yangi avj ijod qiladiki, buni ko'pgina hofizlar o'z ijro jarayonida ishlatish imkoniga ega bo'lmaganlar.

Buxoroda ham har bir yetuk san'atkor xalq mumtoz ashulalarini ijro etish bilan birga musiqqa san'atining murakkab janri bo'lmish Shashmaqomni ham chuqur bilishi va uning sho'balarini ijro etganda ular bilan bog'liq bo'lgan murakkab usullarni doyra jo'rligida aytish mahoratiga ega bo'lishi shart edi. Ana shu xususiyat Domla Halimda mavjud bo'lib, u ijro etgan barcha ashulalariga doyrada o'zi jo'rnavozlik qilardi. Buxoro musiqqa maktabining atoqli vakili domla Halim Ibodov bilan ijodiy munosabatda bo'lgan etnograf YE. Romanovskaya Domla Halim ovozing ta'sir kuchi va ijro uslubini quyidagicha tavsiflagan: "...u ashulani go'zal

tembrli tovushda tiniq va erkin ijro etishdan tashqari qudratli nafasga ham ega edi va bir nafasda ashulaning juda murakkab avjlarini ustalik bilan ijro etar, shuningdek, tovushni uzoq cho‘za olar edi. U tabiiy ovozga ega bo‘lib, umrining oxirigacha ashulani xuddi yoshlardek osonlik bilan ijro etardi, ashula avjiga “yuz” marta chiqqanda ham uning ovozida ozgina bo‘lsa ham kuchanish alomatlari sezilmaydi”. Haqiqatdan ham Domla Halimning ovozi **tenor – altina** bo‘lib, juda yuqori pardalarda tiniq jaranglaydigan **“Shikami”** ovoz bo‘lgan Domla Halimga xos mohirona ijro uslubi faqat milliy san’atkor va shonavandalar tomonidagina emas, balki boshqa xalq musiqa mutaxasislari tomonidan ham juda yuqori baholanadi. Xususan, Moskva va Leningrad konservatoriyalarining vokal kafedrasini professori A. Migay va boshqalarni uning baland ovozi va ijro uslubi qoyil qoldirgan.

1921 yilda Buxoroda ochilgan Sharq musiqa maktabida faoliyat ko‘rsatgan Ota Jalol (1845-1928) o‘zining faoliyati davomida Levi Boboxonov, Borux Zerkiyev, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Turobqul Qorovulbegi, Tohirjon Davlatzoda, Mirzo Abdulkarim Vobkandiy, Ma‘rufjon Toshpo‘latov, Najmiddin Nasriddinov va boshqa iste’dodli sozanda –xonandalarga Buxoro musiqa maktabi an‘analarini qat’iylilik bilan o‘rgata boshlaydi. Ota Jalolning Buxoro musiqa maktabi tarixida amalga oshirilgan eng muhim ishlaridan biri u 1924 yilda Abdurauf Fitrat tashabbusi Ota G‘iyos va V. Uspenskiylar bilan birga Buxoro shashmaqomini notaga ko‘chirib, uni Moskvada nashr ettiradi. Ota Jalol “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” dan iborat olti maqomning nasr va mushkilot qismlarini notaga ko‘chirtirar ekan, u har bir sho‘baning usul va ohang tuzilishini nuqsonsiz ijro etishga erishadi.

Buxoro musiqa maktabining atoqli namoyandasi Ota Jalolning iste’dodi va mustahkam xotirasiga tan bergan etnograf V. Uspenskiy: “Ota Jalol kekxa bo‘lishiga qaramay, uning baland va yoqimli ovozi, o‘tkir xotirasi saqlanib qolgan edi. Bu hofiz barcha Shashmaqom sho‘balarning kuy va she‘rlari bilan bir qatorda 18 turdan iborat maqom usullarini o‘z yodida chuqur saqlab qolgan san’atkordir”, - deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Atoqli hofizlar Mulla To‘ychi Toshmuhammedov va Shorahim Shoumarov Buxoroga kelganda Ota Jalol uyiga mehmon bo‘lib, undan “Girya” qo‘shig‘ini o‘rganib olganliklari haqidagi ma’lumotning manbalarda qayd etilgani ham Buxoro musiqa maktabining salohiyatidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Shashmaqom saboqlari. Maqola va ma’ruzalar to‘plami. 1-to‘plam. – T., 2005.
2. Shashmaqom saboqlari. Maqola va ma’ruzalar to‘plami. 2-to‘plam. – T., 2005.
3. Matyoqubov O. Maqomot. – T., 2005
4. O‘zbek xalq musiqasi. 5 – tom. To‘plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy. – T., 1959.
5. Rasulov O‘. An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi. – T., 2006.